

CLIL YONDASHUVI ASOSIDA O'ZBEKISTON MADANIY MEROSINI INGLIZ TILI TA'LIMIGA INTEGRATSIYALASH METODIKASI

Shodieva Nilufar Olim qizi

e-mail: lilyshadieva@gamil.com

Magistr.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15835050>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lif konsepsiyalaridan biri bo'lgan CLIL (Content and Language Integrated Learning – Mazmun va Tilni Integratsiyalashgan O'qitish) yondashuvi asosida O'zbekistonning boy madaniy merosini ingliz tili ta'lifiga samarali integratsiyalash metodikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy madaniyatga oid materiallar asosida ishlab chiqilgan darslar orqali oliy ta'lif muassasalarining turizm yo'nalishida tahlil olayotgan talabalarda nafaqat ingliz tiliga oid kommunikativ ko'nikmalarni, balki ularning lingvomadaniy kompetensiyasini, ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini hamda fanlararo tafakkurini shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada CLIL yondashuvining nazariy asoslari, didaktik imkoniyatlari, amaliy qo'llanish tajribalari hamda eksperimental tahlillari keltirilib, mazkur metodikaning turizm sohasi uchun dolzarb bo'lgan kasbiy va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: CLIL, turizm, inliz tili, madaniy meros, metodika, integratsiya, dars modeli, lingvomadaniy kompetensiya.

МЕТОДИКА ИНТЕГРАЦИИ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКИСТАНА В ПРЕПОДАВАНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ CLIL-ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье рассматривается методика эффективной интеграции богатого культурного наследия Узбекистана в преподавание английского языка на основе подхода CLIL (Content and Language Integrated Learning — интегрированное обучение предмету и иностранному языку), одного из современных образовательных концептов. В исследовании показано, как уроки, разработанные на основе национальных культурных материалов, способствуют не только развитию коммуникативных навыков на английском языке у студентов высших учебных заведений туристического направления, но и формированию их лингвокультурной компетенции, креативного и критического мышления, а также междисциплинарного восприятия. В статье представлены теоретические основы, дидактический потенциал, практическое применение и экспериментальные результаты подхода CLIL, обосновывается его эффективность в развитии профессиональных и культурных компетенций, необходимых в сфере туризма.

Ключевые слова: CLIL, туризм, английский язык, культурное наследие, методика, интеграция, модель урока, лингвокультурная компетенция.

METHODOLOGY FOR INTEGRATING UZBEKISTAN'S CULTURAL HERITAGE INTO ENGLISH LANGUAGE TEACHING THROUGH THE CLIL APPROACH

Abstract. This article examines the methodology of effectively integrating Uzbekistan's rich cultural heritage into English language education based on the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach, one of the modern educational concepts. The study explores how lessons developed using culturally relevant national materials contribute not only to improving English communication skills among university students majoring in tourism but also to developing their intercultural competence, creative and critical thinking, and interdisciplinary awareness.

The article presents the theoretical foundations, didactic potential, practical applications, and experimental findings of the CLIL approach, emphasizing its effectiveness in enhancing professional and cultural competencies that are essential for students in the field of tourism.

Keywords: CLIL, tourism, English language, cultural heritage, methodology, integration, lesson model, communicative competence.

KIRISH

Zamonaviy global ta’lim makonida ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki fanlararo integratsiyani amalga oshirishda muhim strategik resurs sifatida e’tirof etilmoqda.

Hozirgi vaqtida xorijiy til o‘qitish metodikasida fanni va tilni birgalikda o‘zlashtirishga asoslangan CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi keng e’tibor qozonib, talabalarni kompleks fikrlashga, mazmuniy tushunishga va madaniyatlararo kommunikatsiyaga tayyorlashga xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv, ayniqsa, talabalarning til kompetensiyasini real kontekstda rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. O‘zbekistonning boy va rang-barang madaniy merosi — qadimiy tarixiy yodgorliklar, milliy urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodi, san’at va adabiyot namunalari — ingliz tili ta’limi uchun o‘ziga xos didaktik resurs bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu materiallar talabalarga nafaqat til o‘rganish, balki madaniy identitetni anglash, milliy qadriyatlarni baholash va ularni xorijiy til kontekstida ifoda etish imkonini beradi. Mazkur maqolada CLIL yondashuvi nazariy va metodik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, O‘zbekiston madaniy merosini ingliz tili ta’limiga integratsiyalash orqali erishildigan pedagogik imkoniyatlar, talabalarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari, hamda integrativ o‘quv muhiti yaratishning uslubiy asoslari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

CLIL yondashuvi mazmun (fan) va tilni integratsiyalashgan holda o‘rgatishni nazarda tutadi. Coyle, Hood va Marsh (2010) tomonidan ta’kidlanganidek, CLIL — bu yangi til yoki fan o‘qitish usuli emas, balki ularning sineryiyasi asosida shakllangan innovatsion ta’lim modeli hisoblanadi. Unda o‘quvchilar fanga oid kontentni o‘zlashtirar ekanlar, shu bilan birga chet tilini ham tabiiy kontekstda egallaydilar. Mazkur yondashuvning asosiy tamoyillari 4C modeli (Content, Communication, Cognition, Culture) orqali ifodalananib, o‘quvchilarning til va predmet kompetensiyasini bir vaqtida rivojlantirishni maqsad qiladi. Peeter Mehisto (2012) o‘z maqolasida sifatli CLIL ta’lim materiallarini ishlab chiqish mezonlarini chuqur tahlil qilib, mazmun, til va o‘quv ko‘nikmalari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni asoslaydi. Muallifga ko‘ra, o‘quv maqsadlarini va akademik til komponentlarini aniq ifodalash formativ baholash, tanqidiy fikrlash va o‘quvchi mustaqilligini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. CLIL materiali nafaqat o‘quvchi tilini rivojlantirishi, balki ularning ijtimoiy, madaniy va ekologik ongini ham tarbiyalashi lozim. Muallif CLIL resurslarini ishlab chiqishda stereotiplarni oldini olish, inklyuzivlikni qo’llab-quvvatlash, va ekologik mas’uliyatni yodda tutish zarurligini ham alohida ta’kidlaydi. CLIL metodologiyasi o‘zining moslashuvchanligi va fanlararo xususiyati bilan ajralib turadi.

Cinganotto, Benedetti va Guida (2021) tomonidan ishlab chiqilgan “CLIL for STEAM” metodik ko‘rsatmalarida bu yondashuv o‘quvchilarning til kompetensiyasi, intellektual faolligi va madaniy ongini birgalikda rivojlantirish vositasi sifatida taqdim etiladi. Mualliflar Do Coyle tomonidan ishlab chiqilgan 4C modeli (Content, Communication, Cognition, Culture) va til triptixiga tayangan holda, CLIL darslarining tarkibiy qismlarini tizimli yondashuv asosida ochib

beradilar. Ayniqsa, CLIL metodikasi Bloom taksonomiyasi doirasida yuqori (HOTs) va past (LOTs) darajadagi tafakkur ko'nikmalarini uyg'unlashtirish imkonini beradi. CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodikasi – ya'ni mazmun va tilni birgalikda o'rgatish yondashuvi – o'ziga xos pedagogik konsepsiya bo'lib, 1990-yillarda Yevropada shakllangan va shundan beri xalqaro miqyosda keng tarqalgan. Ushbu yondashuv, ayniqsa, maktab ta'limida keng tatbiq etilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda oliy ta'limda ingliz tili asosida o'qitishning kengayishi natijasida, CLIL tamoyillari oliy bosqichlarda ham qo'llanilmoqda. CLIL, odatda, fanni ikkinchi tilda yoki ikki tilda o'rgatishga asoslanadi. Biroq u boshqa ikki tilli ta'lim modellaridan, masalan, immersiv (sho'ng'ishli) yoki til ozchiligi uchun mo'ljallangan tizimlardan farq qiladi. CLIL asosan, til va mazmunning muvozanatlari uyg'unligiga e'tibor qaratadi (Ball, Kelly, & Clegg, 2015). CLIL darslari bir vaqtning o'zida tilni o'rghanish, mazmunni anglash, ijtimoiy munosabatlar va kognitiv faoliyatni rivojlantirish maydonidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, turli nazariy va metodologik yondashuvlar CLIL'ning ko'p qirrali tabiatini va muvaffaqiyat omillarini aniqlashda muhim o'rinni tutadi. Xususan, CLIL'ni chuqurroq anglash fanlararo hamkorlikni talab qiladi, bu esa tilshunoslar bilan fanga ixtisoslashgan mutaxassislar o'rtasidagi integratsiyani nazarda tutadi (Journal of Immersion and Content-Based Language Education, 2013).

MUHOKAMA

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish jarayoni faqat grammatik bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, uni madaniy, ijtimoiy va sohaviy kontekstda qo'llashni talab qilmoqda. Ayniqsa, turizm yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu yondashuv muhim ahamiyatga ega, chunki ularning professional faoliyati xalqaro muloqot, madaniy merosni targ'ib qilish va xorijiy mehmonlarga xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq. Tadqiqot natijalari CLIL yondashuvi asosida O'zbekiston madaniy merosini ingliz tili ta'limiga integratsiyalash talabalarning lingvistik va madaniy kompetensiyalarini birgalikda rivojlantiruvchi samarali usul ekanini ko'rsatdi. Bunday yondashuv til o'rghanishni faqat grammatik va leksik darajada emas, balki madaniyatlararo muloqot kontekstida olib borishni nazarda tutadi. Byram (1997) ta'kidlaganidek, chet tilini o'rghanayotgan shaxs o'rghanayotgan tilni uch asosiy ssenariyida ishlatishi mumkin: bu — tilning ona tili bo'lgan jamiyatda muloqot qilish, tilni umumiy aloqa vositasi sifatida (lingua franca) ishlatish, yoki o'z mamlakatida boshqa etnik guruh vakillari bilan muloqotga kirishishdir. Har bir holatda, boshqa guruh vakillari bilan muloqot qilish til o'rghanayotgan shaxsning shaxsiy va guruhiy identitetini shakllantirishga ta'sir etadi. CLIL yondashuvi shunday madaniyatlararo kontekstlarda nafaqat til, balki madaniy ongini ham rivojlantiradi. O'zbekiston madaniy merosini CLIL orqali ingliz tili ta'limiga integratsiyalash orqali o'quvchilar o'z milliy qadriyatlarini xalqaro kontekstda tanitish va tushuntirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, CLIL (Content and Language Integrated Learning – Mazmun va Tilni Integratsiyalashgan O'qitish) metodikasi o'zining fan va tilni uyg'unlashtirgan holatdagi kompleks yondashuvi bilan turizm sohasida faoliyat yurituvchi mutaxasislarni tayyorlashda istiqbolli va samarali model hisoblanadi. O'zbekistonning boy madaniy merosi – tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklari, urf-odatlar va xalq san'ati – CLIL darslarida asosiy mazmun sifatida qo'llanilganda, talabalarda ingliz tilini ixtisoslik doirasida faol qo'llash, milliy identitetni anglash va madaniy turizmni ilgari surish ko'nikmalari rivojlanadi.

Masalan, "Cultural Tourism in Uzbekistan" mavzusi doirasida olib borilgan CLIL asosidagi darsda talabalar Buxoro va Xivaning tarixiy markazlari, ularning UNESCO ro'yxatiga kiritilishining sabablari, mehmonlarga mo'ljallangan marshrutlar haqida ingliz tilida taqdimot

tayyorlaydilar. Dars davomida ular til ko'nikmalarini nafaqat o'qish va yozish, balki real kommunikativ vaziyatlarda, jumladan gidlik nutqida, muloqot va xizmat ko'rsatish kontekstida rivojlantirishga harakat qiladilar. Bu jarayon talabalarni tilni amaliy, kasbiy va madaniy kontekstlarda qo'llashga o'rgatadi. Muhokama davomida aniqlanishicha, CLIL modeli quyidagi afzalliklari bilan ajralib turadi:

Til o'rganishni mazmunli va sohaga oid kontekstda olib boradi, bu esa o'zlashtirish samaradorligini oshiradi;

Talabalarda madaniy kompetensiyani shakllantiradi, bu esa ularning turistik xizmatlarda malakali mutaxasis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi;

Fanlararo yondashuv orqali tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va xalqaro mijozlarga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

Madaniy merosni ingliz tilida targ'ib qilish, o'z milliy qadriyatlarini xorijliklarga tushunarli tarzda ifodalash salohiyatini oshiradi.

Shu bilan birga, CLIL modelining turizm ta'limga joriy etilishi muayyan cheklovlar bilan bog'liq. Jumladan, CLIL asosida ishlab chiqilgan ixtisoslashgan materiallarning yetishmasligi, o'qituvchilarning ingliz tilidagi sohaviy bilim darjasи, metodik tayyorgarlikning yetarli emasligi va dars tayyorlashga ketadigan vaqtning ko'pligi muhim muammolar sirasiga kiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun oliy ta'lim muassasalarida CLIL asosida madaniy-turistik kontentga moslashtirilgan o'quv kurslarini ishlab chiqish, darsliklar va multimodal resurslar tayyorlash, CLIL kompetensiyalariga ega mutaxasis-o'qituvchilarni tayyorlash, shuningdek, amaliyotga yo'naltirilgan baholash tizimlarini ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, CLIL metodikasi turizm yo'nalishidagi talabalar uchun nafaqat ingliz tilini samarali o'rganish vositasi, balki o'z milliy merosini chuqur anglash, uni xorijiy mehmonlarga zamonaviy til vositasida taqdim eta olish, hamda xalqaro turizm sohasida raqobatbardosh mutaxasis bo'lib yetishish imkonini beradi. Bu esa CLIL'ni O'zbekiston ta'lim tizimida strategik pedagogik yondashuv sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

NATIJALAR

Tadqiqot CLIL yondashuvi turizm yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ayniqsa samarali ekanini ko'rsatdi. Bu yondashuv orqali talabalar ingliz tilida o'z kasbiy sohasi — turizm, mehmonxona biznesi, madaniy meros, xizmat ko'rsatish standartlari kabi yo'nalishlardagi kontentni o'zlashtiribgina qolmay, shu til orqali professional terminologiyani faol qo'llash, muloqotga kirishish va kasbiy vaziyatlarda fikr bildirish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

CLIL metodikasi o'zlashtirishga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, til kompetensiyasi mustahkamlanadi, ikkinchidan esa, kasbiy bilimlar chuqurlashadi. Shu bilan birga, talabalar chet tilida ishlashga nisbatan ichki ishonch hosil qiladi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash malakalari rivojlanadi, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida zarur bo'lgan madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini egallaydi. Bentley (2010) qayd etganidek, CLIL nafaqat til va fan o'zlashtirishni birlashtiradi, balki o'quvchini fuqarolik, madaniyat va jamiyat qadriyatlari bilan uyg'un holda shakllantirishga xizmat qiladi. Agar CLIL metodikasi asosida O'zbekistonning madaniy merosini ingliz tili o'qitish jarayoniga integratsiyalash orqali oliy ta'lim muassasalarida, xususan turizm yo'nalishidagi talabalarga yo'naltirilgan darslar tashkil etilsa, quyidagi kutilayotgan natijalarga erishish mumkin bo'ladi:

Talabalarning lingvomadaniy kompetensiyasi, ya'ni tilni madaniy kontekstda anglash, ifodalash va muloqotda qo'llash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlanadi;

Tarixiy va madaniy kontent asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar orqali talabalar nafaqat ingliz tilini egallaydi, balki o'z milliy qadriyatlarini xalqaro auditoriyada ifoda eta olish salohiyatiga ega bo'ladi;

O'qitish jarayonining mazmunli, kontekstual va madaniyatga boy bo'lishi natijasida talabalar tilni o'rghanishga bo'lgan ichki rag'batini oshiradi;

CLIL yondashuvi orqali fanlararo integratsion fikrlash, ya'ni til, tarix, madaniyat va boshqa fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish va tahlil qilish qobiliyati shakllanadi;

Bu metodika madaniy merosni ingliz tilida o'rghanish orqali talabalarni xalqaro turizm sohasida samarali kommunikatsiya yuritishga tayyorlash imkonini beradi. CLIL yondashuvini milliy kontent asosida turizm sohasi talababari bilan qo'llash, nafaqat lингвистик bilimlarni chuqurlashtiradi, balki ularni o'z madaniy merosiga hurmat ruhida tarbiyalaydi hamda xalqaro maydonda taqdim eta olish qobiliyatini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 16 p.
2. Mehisto, P. Criteria for producing CLIL learning material. // Encuentro, Journal of Research and Innovation in the Language Classroom, №21, 2012. – pp. 15–33. – ISSN: 1989-0796.
3. Cinganotto, L., Benedetti, F., Guida, M. Guidelines on CLIL Methodology (CLIL for STEAM). – Erasmus+ Programme, 2021.- 4 p.
4. Ball, P., Kelly, K., Clegg, J. Putting CLIL into Practice. – Oxford University Press, 2015. – 6 p.
5. Journal of Immersion and Content-Based Language Education. – 2013. – T. 1, № 1. – S. 91–92 p. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
6. Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – UK: Multilingual Matters, 1997. – 50 p.
7. Bentley, Kay. The TKT Course: CLIL Module. Cambridge University Press, 2010. – 5 p.